

## BOLALARDA XOTIRA SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MASALALARI

**Ismoilova Maftuna Umar qizi**

Namangan viloyati Chust tumani

7-AFCHO‘SMMI psixologi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalarda xotiraning shakllanish jarayoni, uning psixologik xususiyatlari hamda rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar yoritiladi. Shuningdek, xotirani rivojlantirishning samarali usullari va ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** xotira, bola, psixologiya, rivojlanish, eslab qolish, diqqat, tafakkur, o‘rganish, mashq

### KIRISH

Xotira inson psixikasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u ma’lumotlarni qabul qilish, saqlash va qayta tiklash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bolalik davrida xotira faol rivojlanadi va bu jarayon bola shaxsining shakllanishida katta ahamiyatga ega.

Bolalarda xotira asta-sekin shakllanadi. Dastlab ular ko‘proq obrazli (tasviriy) xotiraga ega bo‘ladi, ya’ni ko‘rgan va eshitgan narsalarni eslab qoladi. Vaqt o‘tishi bilan esa mantiqiy xotira rivojlanadi, bu esa bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish imkonini beradi.

Xotiraning rivojlanishida diqqat muhim rol o‘ynaydi. Bola qanchalik diqqat bilan ma’lumotni qabul qilsa, uni eslab qolish shunchalik oson bo‘ladi. Shu sababli ta’lim jarayonida diqqatni jalb etuvchi usullardan foydalanish muhimdir.

Psixologik jihatdan xotira bir nechta bosqichlardan iborat: qabul qilish, saqlash va esga tushirish. Bu jarayonlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, birining buzilishi boshqasiga ham ta’sir qiladi.

Bolalarda xotira rivojlanishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi muhit, o'qituvchining yondashuvi, o'quv materialining qiziqarli bo'lishi va bolaning individual xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

Xotirani rivojlantirish uchun turli usullar mavjud. Takrorlash, mantiqiy bog'lash, tasviriy usullardan foydalanish va o'yinlar orqali mashq qilish samarali hisoblanadi. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin asosidagi mashg'ulotlar foydali.

Shuningdek, o'quv materialini kichik qismlarga bo'lib o'rganish va uni real hayot bilan bog'lash xotirani mustahkamlaydi. Bu usul bolaning eslab qolish qobiliyatini oshiradi.

Ota-onalar va o'qituvchilar bolaga ortiqcha yuklama bermasligi kerak. Me'yorida ortiq ma'lumot berish charchashga olib keladi va xotira samaradorligini pasaytiradi.

Ilk yoshdagi muntazam (o'zaro bog'langan) xotiralarni aksari kishilar esda saqlab qololmasligi kabi ma'lum fakt ko'p jihatdan shu bilan izoxlanadi. Ammo bolada kuchli kechinma va juda yorqsin obraz tugdirgan narsa uzoq, vaqt esda qolishi va so'ngra esga tushishi mumkin. Xotiraning bola xislari, kechinmalari bilan shu tariqa mahkam bog'langailigi maktabgacha yosh davri uchun juda xarakterlidir. Bola shu tariqa taassurotga beriluvchan bo'lganidan ko'pincha o'z xotiralarida eshitgan voqealarini ko'rgan voqealariga aralashtirib yuborishi mumkin. Masalan, 2 yashar-u 6 oylik bola paradga borib, unda ko'p odamlarni va bayroqlarni ko'rdim deb xikoya qiladi. Haqiqatda esa u bayram kuni uyda qolgan, namoyish haqidagi xikoyani otasidan eshitgan edi. Bolalar «yolg'onchiligi»ning dastlabki belgilari shu tariqa paydo bo'ladi. Bolalar «yolg'onchiligi»ning yuzaga chiqishiga tarbiyachi e'tibor berishi, bolaning xotiralarini oydinlashtirishi, bu xotiralarda bolaning o'zi ko'rib xis qilgan voqealarni tevarak-atrofdagi kishilar hikoyasidan bilib olgan voqealaridan ajratib olishiga yordam berishi kerak. Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, ilk yoshdagi bolada yaqqol obrazli xotira ancha o'sgan bo'ladi. Bola idrok qilgan narsasini konkret obraz tasavvurlar shaklida esda saqlab qoladi va esga tushiradi. Xuddi shuning uchun ham bola yorqin, favqulodda tafsilotni bemalol esda saqlab qoladi-yu, ahamiyat muhim bo'lsa-da, sirtdan ko'rinmaydigan, bolaning xissiga ta'sir etmaydigan tafsilotlarga parvo qilmay, o'tib ketaveradi.

Bolaning harakat xotirasi ham ancha o'sadi va takomillashadi. Harakat xotirasining o'sishi yangi harakatlarning xosil bo'lishiga, xilma-xil harakat ko'nikmalarini egallashga chambarchas bog'lik. Bola bemalol yuradigan, yuguradigan, sakraydigan bo'ladi. Bu ko'nikmalarni egallashda zarur harakatlarni esda saqlab qolish va esga tushirish juda muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolada harakat ko'nikmalarini egallash jarayoni kattaroq bolalardagi va katta yoshli kishilardagi shunday jarayondan ancha farq qiladi. Katta yoshli kishining ko'nikma va harakatlarni egallashida ongli mashqlar g'oyat muhim rol o'ynaydi. Ilk yoshdagi bola asosan katta yoshli kishilarga taqlid qilish, ulardan nusxa kuchirish yo'li bilan harakatlarni bilib oladi. Bola katta yoshli kishilarning Imo-ishorasini o'rganib oladi, ularning harakatlariga taqlid qilishga intiladi, otasiga taqlid qilib xat yozmoqchi bo'ladi, onasiga o'xshab hamir qorgisi keladi, akasi bolg'a urib mix qoqqanini eslaydi-da, shu harakatlarni takrorlashga intiladi va xokazo. Bu taqliq katta yoshlik kishilar tomonidan oqilona yo'lga solib turilsa, bolaning harakat xotirasini o'stirishida, xilma-xil harakatlar xosil qilishida katta rol o'ynaydi. Ayni vaqtda bolaning shunday taqlid faoliyatini oqilona ravishda cheklay bilish ham zarur, chunki hamma harakatlar bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolaning qo'lidan kelavermaydi, uning qo'l harakatlari hali uyg'unlashmagan, barmoqlar harakati takomillashmagan, ko'zi hali yaxhi chamalay olmaydigan bo'ladi va xokazo.

Bola nerv sistemasining yuksak darajada plastik, muloyim, o'zgaruvchan bo'lishi tufayli uning mexanik xotirasi juda o'sgan bo'ladi. yondoshlik assotsiatsiyasi juda tez xosil bo'ladi. Bola bir necha marta takrorlagandan keyin so'zlarni bemalol esda tutib qoladi, bog'chagacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, kichik she'rlarni xam yodlab oladi. Bu xususiyat ikki yoshdan oshgan bolalar uchun xarakterli bo'lib, ularning xotirasi uzukyuluq ekanligini ravshan ko'rsatadi. Bola butun bir satrdan ko'proq taassurot qoldiradigan ayrim so'zlarnigina o'zlashtiradi va egasiga tushtiradi. Bola sekin-asta narsalarni tobora butun esda qoldira boshlaydi. Bola avvalgidek, satrdagi faqat bir so'zni esga tushiradi-yu, shu so'zning butun bir jumladagi urinish to'g'ti aniqlay oladi. Agar katta yoshli kishi satrni aytib bera boshlasa, bola bilib olgan so'zini zarur joyga qo'yib, fikrga tushunib, satrni bemalol tamomlaydi. Bola birgina so'zni aytib berayotgan bo'lsa, endi butun bir jumlaning

butun bir fikrni bolib olayotganligi shundan ko'rinib turibdi. Bu bola xotirasimiig o'sishidagi katta bir siljishdir. Nihoyat, uch yoshga to'lish oldidan bola butun-butun jummalarni aytadigan va kichik-kichik to'rt satrli she'rlarni aytib bera oladigan bo'lad. Ayni vaqtda mexanik xotira kuchli bo'lganidan she'rlar ancha yaxshi esda qoladi.

Ilk yoshdagi bolada mexanik xotira kuchi bola ko'pincha so'zlarning ma'nosini tushunmasdan yodlayverishida xam ko'rinadi. Lekin bolaning mexanik xotirasi kuchli degan so'zdan, ba'zi psixologlar ta'kidlaganlaridek, u go'yo faqat mexanik ravishda eslab qolar ekan, degan ma'no chiqarmaslik kerak, albatta. Bola tili chiqa boshlagach, aloqa jarayonida nutqdan foydalanadi, til logikasini o'zlashtiradi, so'z-ma'no xotirasi shu paytda xosil bo'lib, tez o'sa boradi. Bola so'zlarni tushunib, esda qoldira boshlaydi. Bolaning eslab qolayotgan so'zining ma'nosini tushuntirib berishni so'rab katta yoshli kishilarga ko'pdan-ko'p galati savollar bilan murojaat qilishi shundan guvohlik beradi. Bolaning boshidan kechgan voqea, ko'rgan hodisasi haqida so'zlab bera bilishi xam shuni ko'rsatadi. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolaning so'z-ma'no xotirasi hali mukammal emas, bu xotirani o'sstirish uchun tarbiyachi doimo e'tibor va yo'l-yuriq ko'rsatib turishi lozim. Ma'lumki, kundalik faoliyatimiz davomida biz sezgan, idrok qilgan va fikr qilgan har turli narsa xamda hodisalar xech qanday izsiz yuqolib ketmaydi. Ular ma'lum darajada ongimizda saqlanib qoladi.

Demak, xotira deganda biz ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni, kechirilgan tuyg'u, o'ylangan fikr xamda qilingan harakatlarni esda qoldirish, esda saqlash va keyin esga tushirishdan iborat bo'lgan psixik jarayoni tushunamiz. Xotira ham boshqa hamma psixik jarayonlar kabi bolaning yoshlik chog'idan boshlab taraqqiy eta boshlaydi. Shu sababli yosh bolalarning xotirasi katta odamlarning xotirasidan tubdan farq qiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ilk yoshidagi bolalar asosan ixtiyorsiz esda olib qoladilar. Bola bog'cha yoshida psixik o'ssish jixatidan ancha yuksak darajaga ko'rsatiladi. Shuning uchun bog'cha yoshidagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning oldiga qo'yilgan yangi talablar asosida takomillasha boradi. Biroq shu narsa xarakterliki, bolaning boqcha yoshidagi davrida xam asosan xotiraning ixtiyorsiz turi ko'rinadi. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan ularda kuchli

taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qola beradilar. Ular biror narsani eslarida olib qolishni o'z oldilariga qat'iy maqsad qilib qo'ymaydilar va hali bunday maqsad qo'yishni uddasidan xam chiqa olmaydilar. Shuning uchun turli narsa va hodisalar bolalarning o'yin faoliyatlarida o'z-o'zidan, ya'ni beixtiyor ravishda eslarida saqlanib qolaveradi.

Kichik va bog'cha yoshidagi bolalarda asosan ixtiyorsiz esda olib qolishning hukmron bo'lishi tasodifiy emas. Buning o'z sabablari bor. Har bir tarbiyachipedagog bolalar xotirasiga doir xususiyatlarni yaxshi bilishi kerak. Ana shunda bolalar xotirasini to'g'ri rivojlantirishi mumkin. Bog'cha yoshidagi bolalar xotirasining katta odamlar xotirasidan farqi, avvalo, ular oliy nerv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'likdir. Bir qator psixologlari tomonidan o'tkazilgan ilmiy tekshirish ishlari natijalarining ko'rsatishicha, bog'cha yoshidagi bolalar oliy nerv faoliyati quyidagi maxsus xususiyatlarga ega. Birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarning nerv sistemalari juda plastik xarakterga ega, ya'ni ularning nerv sistemalari xaddan tashqari egiluvchan, taassurotga beriluvchandir. Shuning uchun ham bu yoshdagi bolalarda vaqtli bog'lanishlar juda yengillik va tezlik bilan hosil bo'ladi. Bolalar nerv sistemasining bu xususiyati ularning esda olib qolish qobiliyatlariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Shu sababli ular ashula, ritmli she'r, qiziqarli va chuqur ta'sir etadigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar. Ikkinchidan, bog'cha yoshidagi bolalar nerv sistemasi yengil qo'zg'aluvchan bo'lishi bilan birga yuzaga keladigan vaqtli bog'lanishlar juda beqaror bo'ladi, ya'ni mustahkam bo'lmaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar tomonidan idrok qilingan xar turli narsa va hodisalar ularning xotiralarida uzoq saqlanib qolmaydi. Ular tez esga olishlari bilan birga tez unutib ham yuboradilar.

Ko'pincha narsa va hodisalarining bog'cha yoshidagi bolalar xotiralarida mustahkam saqlanib qolishi shu narsa va hodisalarning emotsional ta'siriga bogliq bo'ladi. Uchinchidan, bog'cha yoshidagi bolalar nerv sistemasida qo'zg'alish jarayoniga nisbatan tormozlanish jarayoni ancha sust bo'lganligi tufayli ular o'xshash va birdaniga juda ko'p idrok qilingan narsalarning farqini yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ular birdaniga idrok qilgan juda ko'p narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar. Agar bog'cha

yoshidagi boladan kechagi bayram kuni bo'lgan, ya'ni idrok qilgan narsalarini bir boshdan so'zlab berishni so'ralsa, u ma'noli va sistemali qilib so'zlab bera olmaydi. U gapni tasodifiy esga tushib qolgan narsalardan boshlab ketaveradi, chunki birdaniga juda ko'p ko'rgan narsalarini bola tamom aralashtirib yuborgan.

Boshqacha qilib aytganda, bolaning esda olib qolgan narsalarida hali sistema yo'q. Shuning uchun dastavval chuqur taassurot qoldirgan narsalardan boshlab gapiraveradi. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkin. Agar bog'cha yoshidagi bolalarga xaddan tashqari ko'p, ya'ni keragidan ortiq narsalar ko'rsatilsa, ular xamma narsani bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar va birontasini ham yaxshi eslab qola olmaydilar. Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari bu yoshdagi bolalar nerv sistemalarining ana shu yuqorida ko'rsatilgan maxsus xususiyatlarini nazarga olgan holda ish olib borishlari lozim.

Tajribalarning ko'rsatishicha, kichik bog'cha yoshidagi bolalarga nisbatan o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida ixtiyorsiz va mexanik ravishda eslab qolish qobiliyati bir oz susayadi. Ammo bundan, bolalar ulg'aygan sari ularning xotirasi kuchsizlanadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu yerda gap shundaki, bolalar o'sib, turmush tajribasi oshgan va nutqi o'sgan sari ular narsa va hodisalarni surunkasiga emas, balki tanlab ya'ni o'zlariga kerakliginigina esda olib qoladigan bo'la boshlaydilar. Buning farqiga bormagan ayrim ota-onalar va tarbiyachilar, bolalarning xotirasi kuchsizlana boshladi, deb xatj xulosaga keladilar. Juda ko'p yillar mobaynida bog'cha yoshidagi bolalarda mantiqiy, ya'ni ma'nosiga tushunib esda olib qolishga nisbatan mexanik esda saqlab qolish ustun bo'ladi, degan fikr mavjud edi. Shu bilan birga, mexanik esda olib qolish mantiqiy esda olib qolishga qarama-qarshi qo'yilar edi. So'nggi yillarda o'tkazilgan eksperimental tekshirishlar natijalarining ko'rsatishicha, bog'cha yoshidagi bolalarda xam narsa va so'zlarning ma'nosiga tushunib esda qoldirish

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, bolalarda xotira shakllanishi murakkab, ammo boshqariladigan jarayondir. To'g'ri psixologik yondashuv va samarali ta'lim usullari orqali

xotirani rivojlantirish mumkin. Bu esa bolaning bilim olish jarayonini yengillashtiradi va uning intellektual rivojiga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :**

1. Уруктаева Т.А, Афонькина Ю.А., Практикум подтекой психологии, М, 1995, 165 стр.
2. Овчарова Р.В. Практическая психология в начальное школе – М, 1999, 190 стр
3. Гальперин П.Я. К вопросу об инстинктах у человека // Хрестоматия по детской психологии / Под ред. Г.В. Бурменской. М.,1996.
4. Гуткина Н.И. Психологическая готовность к школе. М., 1996. 96с
5. Ziyo.net